



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_-maktabgacha ta'lim tashkiloti  
o'rta guruh tarbiyachisi

\_\_\_\_\_ning  
takomillashtirilgan "Ilk qadam"

o'quv dasturi asosida

"Koinot sirlari" mavzusida tashkillangan



**FAOLIYAT**

**ISHLANMASI**

*(Aprel oyining 2-haftasi)*

# veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*

*+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek456 izlab telegramga yozishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.*

*Hujjat word variant doc formatda beriladi.*

*O'rta guruhlarga aprel oyi 2-hafta faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.*




Telegram kanalimiz:

@maktabgacha\_tt

Narxi: 5000

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



## DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**

**Guruh: O'рта guruhlar uchun**

**Oy mavzusi: Yer sayyorasi-umumiy uyimiz**

**Hafta mavzusi: Koinot sirlari**

**Ta'limiy faoliyat maqsadlari**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, shu jumladan, ularga osmon jismlari haqida eng sodda tushunchalarni berish. Savollarga to'g'ri javob berish va o'z fikrini erkin bayon etish ko'nikmasini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** osmon jismlarining o'ziga xosliklarini tushuntirish, bola xotirasi, fikrlashini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda samoviy jismlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish.

**Kerakli jihozlar:** osmon jismlari surat i, AKT.

**Ta'limiy faoliyatning borishi**

**Tarbiyachi:** - Bolalar, siz kechqurun yulduzli osmonni ko'rganmisiz? Men ham yulduz to'la osmonni tomosha qilishni yaxshi ko'raman. Yulduzlar bizga har xil ko'rinadi: kichik, katta, yorqin, xira, ammo juda chiroyli va sirli. Qadimdan otabobolarimiz yulduzlar ilmiga qiziqishgan. Ya'ni, yulduzlarning joylashishiga qarab, ularning har birini turli nom bilan atashgan. Bular - yulduz turkumlari deb ataladi. Masalan, Katta ayiq, Qutb yulduzi va boshqalar. Jumladan, buyuk matematik va astronom Mirzo Ulug'bek observatoriya qurdirgan va shu joyda samo jismlari ustida kuzatishlar olib borgan.





**(Bolalarga observatoriya rasmlari monitorda ko‘rsatiladi.)**

**Tarbiyachi:** - Bolalar, siz Oy haqida nimalarni bilasiz?

**1-bola:** - Oyga raketada uchib borish mumkin. Oyga odamlar uchib chiqishgan. Oy tunda yorug‘lik taratadi.

**Tarbiyachi:** - Ayting-chi, Yerga nisbatan Oy yaqinmi yoki yulduzlarmi?

**2-bola:** - Oy Yerga yulduzlarga nisbatan yaqinroq joylashgan.

**Tarbiyachi:** - Juda to‘g‘ri, Yerga Oy yaqin, yulduzlar esa Yerga nisbatan juda uzoq masofada joylashgan.

**Tarbiyachi:** - Raketa o‘zi nima, u qanday boiishi kerak? Keling, hozir sizlar bilan raketada Oyga sayohat qilamiz. Men parvozda kapitan bo‘laman va sizlarni kosmonavtlar guruhiga qabul qilaman. Qani, ketdik. Yulduzlar juda uzoqda joylashgani uchun ular bizga kichkinadek, Oy Yerga yaqin masofada joylashgani uchun kattadek ko‘rinadi. Aslida, Oy Quyosh va yulduzlardan an-cha kichik. Mana, Oyga ham yaqinlashdik, hammangiz ekranga diqqat bilan qarang!

**(Oyning koinotdagi rangli tasviri ko‘rsatiladi.)**

**3-bola:** - Oy shar shaklida ekan. Oy yorug‘lik taratadi, o‘zidan nur chiqar-maydi, uni quyosh nurining yerdan qaytgan qismi yoritadi. Shuning uchun Oy Yerdan turli shaklda ko‘rinadi. Biz Yerdan Oyni kuzatganimizda unda xuddi ko‘z, og‘iz, burun borday ko‘rinadi. Oyda suv, havo yo‘q, yomgir va qorlar yog‘maydi.

**Tarbiyachi:** - U yerda yashab bo‘lmaydi, Oyga chiqqan kosmonavtlar esa skafandrlar kiyishadi.

**4-bola:** - Skafandr nima?

**Tarbiyachi:** - Skafandr - bu odamning tanasini tashqi muhitdagi zararli narsalardan himoya qilish uchun kiyiladigan himoya kiyimi

**(Monitorda skafandr ko'rsatiladi.)**

**5-bola:** - Oy bizning ustimizga tushib ketmaydimi?

**Tarbiyachi:** - Oy hech qachon Yerning ustiga tushib ketmaydi, chunki osmon jismlari o'rtasida tortishish kuchi bor. Tortishish kuchi bo'lgani uchun ular o'z o'qi atrofida aylanadi va muvozanatdan chiqmaydi.

(Amaliyot: tarbiyachi ikkita bolani o'rtaga chiqarib tortishish kuchi qonuniyatining ishlashini tushuntiradi. Ikki bola uzun arqonni bir xil kuch bilan bir-biriga tortadi. Shunda muvozanat bir xil bo'lishini ta'kidlaydi.)

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar, planetamiz bizni sog'indi. Keling, ko'zimizni yumamiz, ochganimizda o'z planetamizda bo'lib qolamiz... Bolajonlar, qarang, bizning planetamiz qanday go'zal.

**(Monitorda tog'lar, daryolar, ko'llar rasmi ko'rsatiladi.)**

O'rmonlar, daryolar, ko'llar, tog'lar - bularning barchasi biz yaxshi ko'radigan va qadrlashimiz kerak bo'lgan boyliklarimizdir. Sayohatimiz sizga yoqdimi? Sayohatimiz davomida siz nimalarni o'rgandingiz?

**(Bolalarning fikri so'raladi.)**

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar, samoga chiqib, osmon jismlarini o'rganadigan kasb egalari kosmonavtlar deyiladi.

**(Monitorda kosmonavtlar suratlari ko'rsatiladi.)**

**Tarbiyachi:** - Endi jismoniy daqiqa o'tkazib olamiz.

Osmonda Oy bittagina,  
Yagonadir Quyosh ham.

Yulduzlarni sanaymiz:

Bir, ikki, uch, to'rt.

**(Bolalar matnga mos harakatlarni bajarishadi.)**

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar, endi Oy va boshqa osmon jismlari haqida yod olgan she'rlarimizni aytamiz.

**1-bola:** - Men Odil Abdurahmonning "Quyoshjon" she'ri yodlaganman.

Quyoshjon

Odil Abdurahmon

Yon quyoshjon,

Jon quyoshjon,

Otdi oppoq Tong, quyoshjon.

Don-dunimga Hosil tilab,

Boshlarini Qo'ygin silab.

Yurtimizga Nur sochaver,

Xalqimizga Baxt ochaver.



**Tarbiyachi:** - Monitorida Oy va raketa rasmini kuzating. Mana bu rangli qog'ozlardan Oy va raketa rasmini namuna asosida kesib olib, osmon tasviri tushirilgan qog'ozga yopishtiring.

**(Bolalar namuna asosida chizilgan oy va raketa rasmini qaychi yordamida kesib olib, samoviy tasvir tushirilgan varaqqa yopishtiradilar.)**

**Tarbiyachi:** - Bolajonlar, endi har biringiz o'zingiz tayyor qilgan applikasiya materialini guruhimizdagi ko'rgazma doskasiga yopishtiring.

**(Ota-onalar farzandlarini olib ketadigan paytda yasagan osmon jismlari applikasiyasi ko'rgazmasi tashkil etiladi.)**



**Aprel Ikkinchi hafta «Koinot sirlari»**

**Qurish va yasash matematika markazi**

***Shamol bilan o'ynash uchun parrak***

**Maqsad:** Bolalar parrak qismlarini yasaydilar, To'g'ri o'rnatishni biladilar va detallarni farqlay oladilar.

**Kerakli jihoz va materiallar:** rangli qog'oz, qaychi, 20 sm. uzunlikdagi tayoqchalar, mixcha va bolg'acha.

**Faoliyatning borishi:**

1. Parraklarni tomosha qilish.
2. Parrak yasash keta-ketligi tasvirlangan sxema bilan tanishish.
3. Parraklarni yasash.
4. Yasalgan parraklarni shamol esganda aylanishini kuzatish.





**Qo'shimcha:** yasalgan parraklar bilan maydonchani bezatish taklifini berish.

Parraklarni yasashning boshqa turlari mavjudligi haqida ma'lumotlar berish va tanishtirish.

**E'tiborga molik jihati:** tayoqchaga mixchalarni qoqishda tarbiyachining rahbarligini ta'minlash, hayot xavfsizligi asoslariga amal qilish.

**Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi**

**«Raketada uchamiz» syujetli-rolli o'yin**

**Maqsad:** bolalar syujet mazmuniga qiziqish bildiradilar. Raketa va uning vazifasi haqida tasavvurga ega. Jamoa bo'lib o'ynaydilar.

**Kerakli jihoz va materiallar:** rasmlar, AKT, raketa maketa, o'yinchoqlar.

**Faoliyatning borishi:**

1. Syurpriz daqiqa:

«Bilmasvoy» mehmonga keladi.

2. «Uchadi, uchmaydi» ta'limiy o'yini.

3. Muhokama: syujetning rivojlanishi.

Rollarni taqsimlash.

4. Uyinning yechishi.

**Qo'shimcha:** multiplikatsion

filmlarni tomosha qilish.

**E'tibor molik jihati:** jamoada

ahil o'ynash, bir-birlarini

tinglay olish. Bolalarning ijodiy kobilyatlarini rivojlantirish.

**Til va nutq markazi**

**«Oyga sayohat»**

**Maqsad:** bolalar o'yinchoqlar

qismlarini to'g'ri nomlaydilar,

lug'at boyliklari oshadi, koinot

sirlarini o'rganishga qiziqishlari

ortadi, kosmonavt kasbi haqida

tasavvurga ega bo'ladilar faol

nutqlari shakllanadi.

**Kerakli jihoz va materiallar:** o'yinchoqlar rasmlari, turli o'yinchoqlar, topishmoqli

konvert.

**Faoliyatning borishi:**

1. Oyga sayohat haqida suhbat. Kosmik ekipajni tuzamiz.

2. «Yulduzli yo'l» ta'limiy o'yini.



3. Topishmoqlarni topish.

4. «Kosmik loto» ta'limiy o'yini.

5. «Ortiqchasini top» ta'limiy o'yini.

**Qo'shimcha:** fazo haqida badiiy asarlarni o'qish, videoroliklarni tomosha qilish.

**E'tiborga molik jihati:** obrazli tafakkurning shakllanishi.

**Fan va tabiat markazi**

**Fazoga yo'l**

**Maqsad:** bolalar fazo haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Fazoga qanday chiqish kerakligini biladilar.

**Kerakli jihoz va materiallar:** syujetli rasm, predmetli rasm, mavzuga oid o'yinlar to'plami. AKT.

**Faoliyatning borishi:**

1. «Yulduzli osmon» rasmini tomosha qilish.

2. Fazo, fazogirlar haqida suhbat.

3. «Kim nima qiladi?» ta'limiy o'yini.

4. «Fazo bu nima?» mavzusida slaydlar namoyishi:

- Sayyoramiz qanday nomlanadi?
- U qanday shaklga ega?
- Yerning yo'ldoshi nima deb nomlanadi?
- Quyosh - sayyorami yoki yulduz?
- Boshqa sayyoralarda hayot bormi?
- Kimlar fazoga uchadi?
- Birinchi fazogir kim bo'lgan?

**Qo'shimcha:** «Fazogirlar» syujetli-rolli o'yin, liboslar yasash. «Bilmasvoy oyda» multiplikatsion filmni tomosha qilish.

**E'tiborga molik jihati:** qiziquvchanlik, tafakkur va nutqni rivojlantirish.

**San'at markazi Loy ishi: Raketa**

**Maqsad:** bolalar loyni (plastilindan) yoyish, ezish, cho'zish usullaridan foydalanib raketa yasaydilar va shaklini o'xshatishga harakat qiladilar.

**Kerakli jihoz va materiallar:** plastilin, taxtacha, salftkalar, kinder syurpriz konteyneri.

**Faoliyatning borishi:**

1. Fazo to'g'risidagi kitob va illyustratsiyalar, albomlarni tomosha qilish.

2. Barmoqlar gimnastikasi.

3. Yasash ishlarini bajarish.

4. Bolalar ijodiy ishlari ko'rgazmasi.

**Qo'shimcha:** fazo haqidagi she'rlarni yodlash.

**E'tibor molik jihati:** fantaziya va ijodiy tasavvurni namoyish etish.

